O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
TOSHKENT DAVLAT SHARQSHUNOSLIK UNIVERSITETI

“TASDIQLAYMAN”
G.Sh.Rixsiyeva

2025-yil “30” 06

# SHARQ ADABIYOTI JAHON ADABIYOTI KONTEKSTIDA (TURK)

# FANINING O’QUV DASTURI

| | |
|---|---|
| **Bilim sohasi:** | 200 000 - San’at va gumanitar fanlar |
| **Ta’lim sohasi:** | 230 000 - Tillar |
| **Mutaxassislik:** | 70230104 – Adabiyotshunoslik (sharq tillari bo’yicha) |

**Toshkent - 2025**

Sharq xalqlari tillari va adabiyoti instituti direktori ________ Mirzaxmedova X.V.

Turkshunoslik oliy maktabi boshlig‘i ________ Aripov M.P.

ARM boshlig‘i ________ Yuldasheva M.M.

| Fan/modul kodi<br>SHAJAK1204 | | O'quv yili<br>2025/2026 | Semestr<br>2 | ECTS - Kreditlar<br>4 | |
|---|---|---|---|---|---|
| **Fan/modul turi**<br>Majburiy | | **Ta'lim tili**<br>O'zbek | | **Haftadagi dars soatlari**<br>4 | |
| 1. | **Fanning nomi** | | **Auditoriya mashg'ulotlari (soat)** | **Mustaqil ta'lim (soat)** | **Jami yuklama (soat)** |
| | **Sharq adabiyoti jahon adabiyoti kontekstida (turk)** | | 48 | 72 | 120 |

2\.

**I. Fanning mazmuni**

**Fanni o'qitishdan maqsad** – magistrlarning adabiy aloqa va adabiy ta'sir masalalari, turk adabiyotining jahon adabiyotidagi o'rni, o'ziga xos xususiyatlari, uning rivojlanish qonuniyatlari va nazariyasi to'g'risidagi bilim, ko'nikma va malakalarini shakllantirishdir.

**Fanning vazifasi** – mazkur fan magistrlarning nazariy bilimlari, amaliy ko'nikmalari, adabiy hodisa va jarayonlarga ilmiy yondashuvi hamda ilmiy dunyoqarashini shakllantirish vazifalarini bajaradi.

**Xorij tajribasiga muvofiqligi:**

Mazkur fan dasturi xalqaro tan olingan reytinglarda birinchi top 300 talik ro'yxatga kiruvchi Yaqin Sharq texnika universiteti (Middle East Technical University (QS-284)) xorijiy tajribasini inobatga olgan holda takomillashtirildi.

https://turk.metu.edu.tr/tr/turk-dili-bolumu-tarafindan-verilen-dersler

**II. Asosiy nazariy qism (ma'ruza mashg'ulotlari)**

**II.I. Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi:**

**1-mavzu. G'arb va Sharq adabiy ta'sir masalalarining o'rganilish tarixi, manbalari**

G'arb adabiyotida Sharq adabiyoti manbalaridan ta'sirlanish jarayonida yaratilgan taqlidiy asarlar va ularning mazmun-mohiyati.

**2-mavzu. Adabiy aloqalarni davrlashtirish**

Sharq va G'arb adabiy aloqalari tarixini davrlashtirish. Sharq mamlakatlarining qadimiyligi.

**3-mavzu. Yunon adabiyotining Sharqqa ta'siri**

Yunon drama, tragediya va komediyalarining Sharq xalqlari adabiyotiga ta'sir doirasi. Karagöz ve Hacivat, Orta Oyunu, Meddah, Aşık Atışmaları,

Köy Seyirlik Oyunları ve Halk Danslarından örnekler sunarak bu alanları tanıma (Qorako'z va Hajivat, O'rta o'yini, Maddoh, Oshiqlar bahsi, Qishloq tomosha o'yinlari va xalq raqslaridan namunalar keltirib bu sohalar bilan tanishish).

**4-mavzu. Sharq adabiyotining Yevropaga ta'siri**

Sharq allomalarining Yevropa adabiyoti va madaniyatiga ta'siri, uning talqini masalasi. Sharq renessansi. Mevlana, Yunus Emre, Ahmet Yesevi gibi düşünürlerin tanıtılması (Jaloliddin Rumiy, Yunus Emro, Ahmad Yassaviy kabi mutafakkirlarning tanishtirilishi).

**5-mavzu. Ilk o'rta asrlar Yevropa adabiyoti**

Ilk o'rta asrlar Yevropa adabiyoti: Qabila tuzumining yemirilishi va feodalizmning barpo bo'lishi davri adabiyoti (V – X asrlar); Rivojlangan feodalizm davri adabiyoti (XI – XV asrlar).

**6-mavzu. Uyg'onish davri va unga Sharqning ta'siri**

Dunyo adabiyotida "Ming bir kecha" motivlari. Sharq adabiyotining durdona asarlarining ta'sir doirasi. Divan Şiiri: Baki ve Fuzuli şiiri üzerinde incelenecektir (Devon she'riyati: Boqiy va Fuzuliy she'riyati asosida tadqiq qilinadi).

**7-mavzu. Xayyom Sharqu G'arb kontekstida**

Sharq adabiyoti va xayyomona ruhdagi she'riyat. Uning G'arb she'riyatida tutgan o'rni. Şiir inceleme yöntemleri: Şiirin yapısı ve teması hangi inceleme yöntemleriyle ele alınabilir (She'r tahlil usullari: She'rning tuzilishi va mavzusi qaysi tahlil usullari orqali ko'rib chiqilishi mumkin).

**8-mavzu. Ma'rifatchilik davri adabiyoti**

Ma'rifatchilik davri adabiyotining asosiy xususiyatlari, davrning mashhur durdona asarlari.

**9-mavzu. Jahon adabiyotida realizm**

Jahon adabiyotida realizm ko'rinishlari va uning tarafdor ijodkorlari.

**10-mavzu. Jahon adabiyotida modernizm**

Jahon adabiyotida modernizmning vujudga kelish jarayoni va uning vakillari. Türk edebiyatından seçilmiş bir eser (Turk adabiyotidan tanlab olingan bir asar).

**11-mavzu. Jahon adabiyotida hozirgi adabiy jarayon**

Jahon adabiyotida hozirgi adabiy jarayonning xususiyatlari va taraqqiyoti. Dünya edebiyatından seçilmiş bir eser (Dunyo adabiyotidan tanlab olingan bir asar).

**12-mavzu.Turk adabiyotiga Yevropa adabiyotining ta'siri haqidagi qarashlar**

Turk adabiyotida yozilgan ilk taqlidiy asarlar, Yevropa adabiyotining turk adabiyotiga ta'siri masalasi. Türk edebıyatının tarihsel dönemleri ve günümüz Türk edebiyatı hakkında bilgi (Turk adabiyotining tarixiy davrlari va hozirgi zamon turk adabiyoti haqida ma'lumot).

## III. Amaliy mashg'ulotlar bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar

Amaliy mashg'ulotlarda talabalar "Sharq adabiyoti jahon adabiyoti kontekstida (turk)" fanidan ma'ruza darslarida olgan nazariy bilimlarini mustahkamlash bilan birga, amaliy mashg'ulotlar mavzulari bo'yicha tayyorgarlik ko'rish jarayonida qo'shimcha adabiyotlar va nazariy manbalar bilan tanishish orqali qo'shimcha bilim va xulosalar chiqarish ko'nikmalarini shakllantirishdan iborat. Natijada ularning bilim doiralari ilmiy jihatdan asoslangan holda kengayadi.

"Sharq adabiyoti jahon adabiyoti kontekstida (turk)" fani bo'yicha amaliy mashg'ulotlarga tavsiya etiladigan mavzular:

1. Yunon adabiyoti va uning davrlari
2. Ilk o'rta asrlar adabiyoti va turk adabiyoti. Türk edebiyatından seçilmiş bir eser. (Turk adabiyotidan tanlab olingan bir asar.)
3. Uyg'onish davri adabiyoti va turk adabiyoti. Türk edebiyatından seçilmiş bir eser (Turk adabiyotidan tanlab olingan bir asar).
4. Sharq adabiyotining jahon adabiyotiga ta'siri masalasi. Dünya edebiyatından seçilmiş bir eser (Dunyo adabiyotidan tanlab olingan bir asar).
5. Gi de Mopassan, A.Dode, E. Zolya ijodining turk adabiyotiga ta'siri.
6. O. de Balzak, M.Prust ijodining turk adabiyotiga ta'siri. Servet-i Fünun Dönemi (Sarvat-i Funun davri).
7. A.Kamyu, U.Folkner ijodining turk adabiyotiga ta'siri
8. V.Vulf, F.Kafka ijodining turk adabiyotiga ta'siri
9. Pushkin, Chexov ijodining turk adabiyotiga ta'siri
10. Tolstoy, Dostoyevskiy ijodining turk adabiyotiga ta'siri. Edebi Türler: Roman ve Öykü (Adabiy janrlar: Roman va hikoya).
11. Sharq va G'arb adabiy aloqalari. Tanzimat Dönemi Şiiri: Şinasi ve Namık Kemal şiiri üzerinde incelenecek (Tanzimot davri she'riyati: Shinosiy va Nomiq Kamol she'rlari asosida tadqiq qilinadi).
12. Sharq va G'arb adabiyotida uslubiy o'ziga xoslik

## IV. MUSTAQIL TA'LIM VA MUSTAQIL ISHLAR

**Mustaqil ta'lim uchun tavsiya etiladigan topshiriqlar:**

- o'tilgan mavzuni chuqur o'rganishlari uchun darslik, o'quv materiallari bilan faol ishlash;
- ma'ruza, amaliy mashg'ulotlar va imtihonlarga oldindan tayyorgarlik

ko'rish, vaqtdan unumli foydalanish;
- fan (modul)lar bo'yicha mustaqil ta'lim topshiriqlarini belgilangan muddatlarda taqdim etishi;
- mustaqil ta'lim topshiriqlarini bajarishda plagiat (ko'chirmakashlik)ga yo'l qo'ymasligi;
- kichik guruhlarda hamkorlikdagi mustaqil ta'lim topshiriqlarini bajarishda jamoaning umumiy maqsadiga mos harakat qilishi, o'ziga yuklatilgan vazifalami o'z vaqtida bajarishi.

*Mustaqil ta'limni tashkil etishda fanning xususiyatini inobatga olgan holda quyidagi shakllardan foydalanish tavsiya etiladi:*
- mavzu yuzasidan tahliliy ma'lumot (esse) tayyorlash;
- badiiy-ijodiy ishni bajarish;
- kurs ishi (loyihasi)ni bajarish;
- aniq mavzu bo'yicha tahliliy taqdimot (prezentatsiya) tayyorlash;
- berilgan muammoni keng tahlil qilish, unga ta'rif va xulosalarni berish;
- amaliyotdagi mavjud muammoning yechimini topish, test, munozarali savollar va topshiriqlar tayyorlash orqali loyihalar ishlash ko'nikmasini shakllantirish;
- ilmiy maqola, tezislar va ma'ruza tayyorlash;

"Sharq adabiyoti jahon adabiyoti kontekstida (turk)" fanidan mustaqil ish sifatida quyidagi mavzulardan berilishi tavsiya etiladi:

1. Yunon adabiyotining yirik vakillari
2. Sharq adabiyotida axloqiy qarashlarning adabiyotdagi in'ikosi
3. Sharqning mashhur shoirlari. Divan Şiiri: Nedim şiiri üzerinde incelenecektir (Devon she'riyati: Shoir Nadim she'rlari asosida tadqiq qilinadi).
4. Sharq va G'arb adabiyotida uslub masalasining talqini
5. Sharq adabiyoti namunalarining G'arb adabiy tarjimalaridagi aksi
6. Sharq dostonlarining Jahon adabiyotiga ta'siri masalasi
7. Jahon adabiyoti kontekstida Sharqning adabiy qarashlari ifodasi
8. Turk adabiyotida fransuz adabiyotining o'rni. Servet-i Fünun Dönemi: Tevfik Fikret ve Cenap Şehabettin şiiri üzerinde incelenecektir. (Sarvati-i Funun davri: Tavfik Fikrat va Janob Shahobiddin she'riyati asosida tadqiq qilinadi).
9. Turk adabiyotiga ingliz adabiyotining ta'siri. Edebi Türler: Roman ve Öykü (Adabiy janrlar: Roman va hikoya).
10. Turk adabiyotida A.P.Chexov ijodining ahamiyati. Türk edebiyatından seçilmiş bir eser (Turk adabiyotidan tanlab olingan bir asar).

Talabalarga mustaqil ta'lim shaklini tashkil etishga qo'yilgan talablar O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2024-yil 29-apreldagi 136-sonli "Oliy ta'lim muassasalari talabalari mustaqil

| | |
|---|---|
| | ta'limini tashkil etish bo'yicha namunaviy tartibni tasdiqlash to'g'risida"gi buyrug'i asosida ishlab chiqilgan.<br>Mustaqil ta'limni baholash semestr davomida berilgan topshiriq asosida bajarilgan ishlarni HEMISda ilova qilish, shuningdek, oraliq va yakuniy test va savollarga javob berish asosida oshiriladi. |
| 3. | **V. Fan o'qitilishining natijalari (shakllanadigan kompetensiyalar)**<br>***Talaba bilishi kerak:***<br>• adabiy aloqalar tarixiy taraqqiyotining muhim bosqichlari, adabiy aloqalarning vujudga kelish tarixiy sabablari haqida ***tasavvurga ega bo'lishi kerak***;<br>• Sharq adabiy aloqalariga o'z ijodi bilan samarali hissa qo'shgan adiblar ijodini ***bilishi va ulardan foydalana olishi kerak***;<br>• jahon adabiy jarayoni, ta'sir masalalarining nazariy asoslari haqida ma'lumot berish, adabiy ta'sir masalalarini o'rganishda ilmiy tadqiqotlari bilan muhim o'rin tutgan olimlar faoliyati haqida ***ko'nikmalarga ega bo'lishi kerak.*** |
| 4. | **VI. Ta'lim texnologiyalari va metodlari:**<br>• ma'ruzalar;<br>• interfaol keys-stadilar;<br>• seminarlar (mantiqiy fiklash, tezkor savol-javoblar);<br>• guruhlarda ishlash;<br>• taqdimotlar qilish;<br>• individual loyihalar. |
| 5. | **VII. Kreditlarni olish uchun talablar:**<br>Fanga oid nazariy va uslubiy tushunchalarni to'la o'zlashtirish, tahlil natijalarini to'g'ri aks ettira olish, mustaqil ta'lim bo'yicha hamda joriy, oraliq nazorat shakllarida berilgan vazifa va topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat bo'yicha yozma ish va/yoki og'zaki imtihonni topshirish. |
| 6. | **VIII. ASOSIY VA QO'ShIMChA O'QUV ADABIYOTLAR HAMDA AXBOROT MANBALARI**<br>**Asosiy adabiyotlar:**<br>1. Karataş T. Ansiklopedik Edebiyat Terimleri Sözlügü. Sütun Yayınları, İzmir-2014.<br>2. Korkmaz R. Yeni Türk Edebiyatı. Grafiker Yayınları. Ankara-2021.<br>3. Fitrat A. Tanlangan asarlar: IV jild. Darslik va o'quv qo'llanmalari, ilmiy maqola va tadqiqotlar (Mas'ul muharrir B.Qosimov). –T.: Ma'naviyat. 2006.<br>4. Қуронов Д. Мамажонов З. Шералиева М. Адабиётшунослик луғати / Академиашр. Т-2010.<br>5. Quronov D. Adabiyot nazariyasi asoslari. –T.: Akademnashr. 2018. |

| | |
|---|---|
| | **Qo'shimcha adabiyotlar:**<br>1. Mirziyoyev Sh.M. Hozirgi zamon va Yangi O'zbekiston. - Toshkent: O'zbekiston, 2024.<br>2. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekistonda taraqqiyot strategiyasi asosida demokratik islohotlar yo'lini qat'iy davom ettiramiz. 6-jild. - Toshkent: O'zbekiston, 2023.<br>3. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekistonda erkin va faravon yashaylik. 5-jild.- Toshkent: O'zbekiston, 2023.<br>4. Mirziyoyev Sh.M. Inson qadri, uning huquq va erkinliklari, qonuniy manfaatlari uchun. –Toshkent: O'zbekiston, 2022.<br>5. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi. To'ldirilgan ikkinchi nashri. - Toshkent: O'zbekiston, 2022.<br>6. Аристотель. Поэтика (Поэзия санъатлари хақида).-Т.: Ғафур Ғулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти, 1980.<br>7. Елўқ В., Кенжаева П. Кутилмаган меҳмон. Академнашр.Т-2011.<br>8. Кенжаева П. Бинафша. (тарж. П.Кенжаева). Мумтоз сўз, Т-2015.<br><br>**Scopusdan maqolalar:**<br>1. Alagozlu A., Sara S. Language and cognition: Is critical thinking a myth in Turkish educational system? // Procedia Social and Behavioral Science. 2 (2010) 782-786. doi:10.1016/j.sbspro.2010.03.102. www.sciencedirect.com<br><br>**Axborot manbalari:**<br>1. http://sbe.gazi.edu.tr/<br>2. http://www.sosyalbilimler.hacettepe.edu.tr/<br>3. http://sosyalbilimler.istanbul.edu.tr/<br>4. http://www.sosbilen.ege.edu.tr/<br>5. http://www.turkishlanguage.org |
| 7. | Fanning o'quv dasturi Turkshunoslik oliy maktabida ishlab chiqilgan va 2025 yil "25" 06 dagi 21 -sonli bayonnomasi bilan ma'qullangan.<br>O'quv dasturi Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti Kengashining 2025 yil "28" 06 dagi 11 — sonli bayoni bilan tasdiqlangan. |
| 8. | **Fan/modul uchun mas'ul:**<br>P.Kenjayeva − Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti, Turkshunoslik oliy maktabi professori, f.f.d. |
| 9. | **Taqrizchilar:**<br>A.Tilavov - Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti dotsenti, filologiya fanlari nomzodi (turdosh OTM);<br>V.S.Yelok - Anqara Hoji Bayram Vali universiteti (Turkiya), Zamonaviy turkiy tilllar va adabiyoti kafedrasi dotsenti, filologiya fanlari doktori (turdosh OTM). |

| | |
|---|---|
| | Zamonaviy turkiy tilllar va adabiyoti kafedrasi dotsenti, filologiya fanlari doktori (turdosh OTM). |

